



O'ZBEK TILIDA LEKSEMA TALQINI

O'razov Alisher Doniyorovich

Guliston davlat universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasini o'qituvchisi

Email: orazovalisher96@gmail.com

Asenova Sevara Shavkatovna

Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14561847>

ARTICLE INFO

Received: 24th December 2024

Accepted: 25th December 2024

Published: 27th December 2024

KEYWORDS

leksikologiya, leksema, so'z, sistema, leksik sath, Yevropa tilshunosligi, leksik birlik

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbek tilshunosligida o'rganilishiga ko'ra leksemaning tilshunoslikda til birligi sifatida eng muhim tushunchalardan biri sanalishi, tilshunoslikda mavjud bo'lgan leksik sathning birligi aynan shu atama bilan nomlanishi, umuman olganda, leksemaning talqiniga oid ayrim qarashlar va fikrlar tahlilga tortilgan.

Ma'lumki, o'zbek tili qadimdan mavjud bo'lib, asrlar chig'irig'idan o'tib kelayotgan tildir. Tilda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan uning lug'at boyligi ham tarixi kabi anchagina salmoqli. Xususan, tilning lug'at boyligi haqida gap ketar ekan, leksikologiyaning asosiy o'rganish obyekti bo'lgan "leksema" tushunchasiga to'xtalmay ilojimiz yo'q.

Leksikologiya (ot. grek. "lexikos" so'ziga oid va "logos" ta'limot) tilning lug'at tarkibini o'rganadigan tilshunoslik bo'limidir. Professor B.Mengliyev va professor R.Sayfullayeva "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (2010) darsligida ushbu ma'lumotlarni yozadi, ya'ni So'z leksikologiyaning o'rganish manbayi bo'lsa, quyidagi jihatlarining uning predmeti sanaladi:

- lisonning asosiy lug'aviy birligi sifatidagi leksema;
- til lug'at tarkibi strukturasi;
- lug'aviy birliklarning qo'llanishi;
- lug'at tarkibining boyishi va taraqqiyoti;
- leksik birliklarning tilidan tashqaridagi borliq bilan o'zaro munosabati [1-114].

So'z-leksemani tahlil qilish aslida juda qadimga borib taqaladi. Masalan, qadimgi hindlar so'zlarni tahlil qilish, tarkibini o'rganish jarayonida ularni quyidagi bo'laklarga ajratganlar: 1) o'zak, 2) suffiks, 3) qo'shimcha (turlovchi qo'shimcha). Shuningdek, so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi morfemalarni ham farqlaganlar. Ma'lum bo'ladiki, so'z-leksema masalasi til sistemasida qadimdan e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan dolzarb til birligi ekan. E'tibor beradigan tomoni, Yevropa olimlari ham hind tilshunoslarining ishlari bilan yaqindan tanishib, so'zlardan o'zak, so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi morfemalarni ajratishga "kirishganlar". Qadimgi hind tilshunosligining yana asosiy, bosh masalalaridan biri so'z bilan ma'no orasidagi, predmet bilan uning nomi orasidagi munosabat masalasi ham edi.

Yevropa tilshunosligida leksemaga morfema orqali ta'rif berilib, u o'zak morfema sifatida qaraladi. O'zbek tilshunosligida leksema haqida gapiradigan bo'lsak, leksema morfemaning bir ko'rinishi sifatida e'tirof etilganligi tilshunosligimizning yaqin tarixidan ma'lum.

Shu o'rinda professor B.A.Sherebrennikovning fikrini ham keltirish maqsadga to'la muvofiqdir. U ta'kidlaganidek, "...til nutq jarayonida foydalaniladi. Har bir nutq faoliyatida til elementlari ishtirok etadi. Agar til sistem xarakterga ega bo'lsa, nutq ham til elementlari asosida namoyon bo'lgandan keyin sistem xarakterga ega bo'ladi". Bizningcha ham nutq sistemadir, sistem xarakterga egadir. Ammo u tilga nisbatan ikkinchi darajali sistema bo'lib, til sistemasiga asoslanadi, undan imkoniyat sifatida foydalanadi. Til sistemasi asosida nutqiy sistema, nutq faoliyati, fikrni ifodalash sistemasi yuzaga keladi. Shuningdek, nutq (nutqiy faoliyat) fikrni ifodalash jarayoni ekan, ayni jarayonda ishtirok etuvchi birliklar o'zaro mantiqiy, zaruriy munosabatga kirishib, bir butunlikni-sistemani, masalan, nutqni, gapni hosil qiladi. Qolaversa, nutqdagi – fikr ifodalash jarayonidagi so'z ham, so'z birikmasi ham, gap ham, matn ham o'ziga xos mikro va makrosistemalardir [2-23].

Shuni ham aytib o'tish kerakki, Ferdinand de Sossyur asos solgan XX asr sistem tilshunosligi bag'rida o'nlab yangi lingvistik oqim va maktablar vujudga keldi, ularda ulkan zamonaviy yutuqlar qo'lga kiritildi. Lekin sovet lingvistikasi (o'zbek tilshunosligi ham ushbu tilshunoslik ta'siri ostida edi) ma'lum davrgacha sistem tilshunoslikni to'liq tan olmadi, uni "burjua fani" va uydirmachilikda aybladi. Nihoyat, 60-yillarda, kibernetika, genetika, mantiq kabi fanlar qatori, sistem tilshunoslik ham "oqlandi" va shundan keyin tilshunoslarimiz sistem tilshunoslikni tan oldilar va uni rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar [3-6]

Bilamizki, o'zak va morfema turkiy tillar uchun bir-birini qoplovchi, ma'nodosh tushuncha emas. Ya'ni o'zak ham morfema ham alohida xossalarga ega. Masalan, o'zak kishi ongida mustaqil atash ma'noga ega bo'ladi, morfema esa nisbiy ma'noviy mustaqillikka ega bo'lib, biror o'zakka bog'lanmasdan mustaqil ma'no kasb eta olmaydi.

Masalan, arabcha **ktb, qr** o'zaklarini o'qish va u bilan aloqador til unsuri ekanligini, ammo mustaqil qo'llana olmaslik xususiyatini aytish mumkin. O'zbekcha **"tut"** o'zagini sharhlash biz uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. Bizga omonimlik bog'lanishlari, so'zning qanday ma'no tashiyotgani muhim. Masalan, **tut (ot)mulberry, tut (fe'l)catch**. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, o'zbek tilida lisoniy sath birligi sifatida eng kichik ma'noli birlikning ikki alohida turi – leksema va morfemani qat'iy chegaralash uchun yetarli ilmiy asos mavjud. Xullas, turkiy tillarda leksemani morfema orqali emas, lisoniy sathning morfemadan yuqorida turgan, kishi ongida borliqdagi ma'lum ega bir voqelik bilan aloqada bo'lgan lisoniy birlik sifatida qarash lozim. Leksema lisoniy birlik hisoblansa, so'z uning nutqiy voqelanishi, nutqiy birlik sanaladi. Shuning uchun ham leksema barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan tayyorlik, umumiylik, majburiylik kabi xossalarga bo'ladi. So'z esa nutqiy birliklarning tayyor emaslik, individuallik, ixtiyorilik belgilariga ega [4-119].

Leksemaning tayyor yoki tayyor emasligini uning nutqimizda namoyon bo'lishi uchun har doim tayyor turishdan bilishimiz mumkin. Ya'ni leksema ongimizda shakl va mazmunning yaxlitligi sifatida nutqqa shay holatda turadi, nutq jarayonida hosil qilinmaydi. Masalan, ongimizdagi **"uy", "ruchka", "daftar"** kabi leksemalarni borliqdagi biror narsa, predmet kabilarni ifodalovchi ongda tushunchaning in'ikosi sifatidagi ma'noli bir tayyor holda turadi. Biz mavjud leksemani shakliy tomondan ham mazmuniy tomondan ham o'zgartira olmaymiz. Uni faqatgina nutq jarayonida boshqa bir ma'noda qo'llashimiz mumkin bo'ladi. Masalan, professor B.Mengliyev va professor R.Sayfullayeva bu haqida shunday ta'kidlaydi, ya'ni *Mening haykalim bitdi* gapida "haykal" leksemasi "asar" ma'nosida qo'llangan. Ammo bu shaklga "asar" ma'nosi vaqtincha birikib turadi va bu birikish omonat bo'lganligi uchun yashovchanlik kasb eta olmaydi. Demak, so'zlovchi leksemaning na shakliy tomonini, na mazmuniy tomonini o'zgartira oladi [5-120].

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida leksemaning talqini izchil bayon qilish uchun ko'plab ilmiy izlanishlar olib borildi. Tilshunoslarimiz tomonidan leksemaning lisoniy mohiyati izchil

dialektik qonuniyatlarga tayangan holda o'rganila bordi. Bunda E.Begmatov, O.Bozorov, N.Mahmudov, B.Mengliyev, M.Narziyeva, H.Ne'matov, A.Nurmonov, R.Rasulov kabi tilshunoslar va ular izdoshlarining ishlarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent.: 2010. 114-bet)
2. R.Rasulov. Umumiy tilshunoslik. (Tilshunoslikning nazariy masalalari) 2-qism. –Toshkent. “O'qituvchi”. 2006. 23-bet
3. H.Ne'matov, O.Bozorov. Til va nutq. –Toshkent. :“O'qituvchi”. 1993. 6-bet)
4. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent.: 2010. 119-bet)
5. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent.: 2010. 120-bet)
6. Fazilat, E., Lutfinisa, D., & Sirojiddin, M. (2024). OZBEK SAHNA ASARLARI TILINING AYRIM JIHATLARI SHARHI. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(3), 16-21.
7. Rizaqulovich, E. I., Murtozayevich, M. S., & Qizi, N. O. A. (2024). OTNING XUSUSIY LUG 'AVIY SHAKLLARI HAQIDA. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(3), 26-29.
8. Doniyorovich, O. R. A. (2022). TOG 'AY MUROD ASARLARIDA EVFEMIZMLAR. INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND EDUCATION, 1(4), 38-42.
9. O'razov, A. (2023). TILSHUNOSLIK VA UNING SATHLARI XUSUSIDA.
10. Ixtiyor, E., Axrorov, A., & Mamaraximov, S. (2024). TERMINOLOGIYADA GIPERO-GIPONIMIK HODISALAR. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(3), 12-15.
11. Akbarovich, A. A., & Qizi, B. D. A. (2024). SINONIMIK QATORDA POETIK LEKSIKA MASALASI (ERKIN VOHIDOV IJODI MISOLIDA). Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(10), 58-61.
12. Абдуҳакимович, М. Қ., Мамарахимов, С. М., & Ўразов, А. Д. (2024). ЎТМИШДАЁҚ УНУТИЛГАН АРХАИК СЎЗЛАР “ЎЛИК СЎЗЛАР” ДИР. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(3), 74-78.
13. Musayeva, S. I., & Mengliyeva, S. S. (2022). Kursantlarning madaniyatlararo rivojlantirish.
14. Shohruh ilhom o'g, R. Z. (2024, May). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO 'Z TURKUMLARINING O 'RGANILISHI. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 5, pp. 36-46).